


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60410200 – Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;
- Toshkent moliya instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60410200 - <i>Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.3.1. 60410200-Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturinnig tuzilishi.....	10
2.4. Kvalifikatsiya.....	10
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – iqtisodiyot va moliya sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, u o'z ichiga davlat soliq xizmati organlari tizimida soliq ma'murchiligini tashkil etish, moliya organlarida soliqlarni boshqarish, rejalashtirish va prognoz qilish, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarda, soliq maslahati tashkilotlarida soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va jamoat birlashmalari, davlat boshqaruvi organlari, soliq madaniyatining funksional tizimlarini ishlab chiquvchi va targ'ib qiluvchi birlashmalar, jamg'armalarning faoliyat ko'lamini qamrab oladi.

1.2.2. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

Soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliqqa oid munosabatlar, soliq-byudjet tizimi, soliq ma'murchiligi, soliq nazorati, soliq maslahati hamda soliq hisobotidagi jarayonlar majmuasi hisoblanadi.

60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, Soliq qo'mitasi, viloyat soliq boshqarmalari, tuman soliq inspeksiyalari, soliq maslahatchisi va boshqa turdagi moliya-kredit muassasalarida faoliyat yuritishlari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, xalqaro moliya-kredit tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish xuquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatida:

- innovatsion rivojlanish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan fiskal-byudjet siyosatini amalga oshirish;
- soliq qonunchiligiga rioya qilinishini, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini, ularning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;
- byudjetga to'lovlarning tushishi hamda byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarning kamaytirilishiga doir belgilangan prognoz ko'rsatkichlarni bajarish;
- muddatida to'lanmagan soliq qarzini majburiy undiruvga qaratish;
- davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishini, shuningdek davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini nazorat qilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga zarur imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish.

Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- moliya yoki davlat soliq xizmati organlarida soliq tushumlarini tahlil qilish, rejalashtirish va prognozlashtirish, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarining soliq salohiyatini aniqlash;
- soliq xizmati organlarida joriy qilingan dasturiy mahsullarda ishlash va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda axborot-tahliliy ishlarni olib borish;

– soliq to‘lovchilar, soliq solish ob‘ektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan ob‘ektlarni to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olish, axborot xavfsizligini ta‘minlash, soliqqa oid ma‘lumotlarning yagona elektron bazasini yuritish;

– soliq to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning elektron shaxsiy kartochkalarini yuritish va soliq tushumlarining tezkor elektron buxgalteriya hisobini olib borish;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar hisobini yuritish, soliq to‘lovchilarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan soliq qarzi mavjud emasligi haqida elektron ma‘lumotnomalar berish;

– soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishini kameral nazorat qilish;

– soliq qarzlarini paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilish va ularni qisqartirish choralarini ko‘rish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– soliq xizmati organlari ishini tashkil qilish va faoliyatini boshqarish;

– soliq ishini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va resurslarni rejalashtirish;

– innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda soliq ma‘murchiligini tashkil etish;

– innovatsion axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– soliq solish amaliyotida yuz bergan muammolarni yechish yo‘llarini izlash, ilg‘or tajriba va sinalgan metodlarni amaliyotga tatbiq etish;

– xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida unga ma‘lum bo‘lgan xizmat sirlari va boshqa ma‘lumotlarni, shuningdek davlat sirlarini saqlash, ularning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasi tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

– yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish;

– fuqarolarning og‘zaki va yozma murojaatlarini, shikoyat va arizalarini ko‘rib chiqish va qonuniy tartibda hal etish.

Nazorat-taftish faoliyatida:

– soliq to‘lashdan bo‘yin to‘layotgan shubhali soliq to‘lovchilarni aniqlash;

– nazorat qiluvchi organlarining xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha ishlarini muvofiqlashtirish;

– soliq tekshiruvlarini o‘tkazish, soliq to‘lovchilarning moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish, buxgalteriya hisoblari, statistik, soliq va moliyaviy hisobotlar haqqoniyligini tekshirish;

– pul mablag‘larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish choralarini amalga oshirish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining bank kassalariga o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishi yuzasidan soliq tekshiruvlarini tashkil qilish;

– savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, shu jumladan nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llanish, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan qisqa muddatli tekshirishlarni o'tkazish;

– bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlash va oldini olish, ularning hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan, kontrafakt yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashishni tashkil etish;

– boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazoratni amalga oshirish;

– soliq sohasida huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan moliyaviy va boshqa jazo choralarini qo'llashni ta'minlash;

– tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda soliqqa tortish jarayoni bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

– soliq ma'murchiligiga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish hamda tizimlashtirish;

– soliqlar va soliqqa tortish jarayonidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

– internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

2. 60410200 - Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qoʻllay bilishi, axborotlarni yigʻish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan boʻlishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, oʻz ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sogʻlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- meʼyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlish;
- davlat byudjeti, davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari, mahalliy byudjet, bozor iqtisodiyotining mohiyati va belgilari, milliy iqtisodiyot va uning iqtisodiy koʻrsatkichlari, bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli;
- xoʻjalik hisobining mazmuni, vazifasi va ahamiyati, buxgalteriya hisobining predmeti va metodi, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot, uning tuzilishi va mazmuni, schetlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv, hujjatlashtirish va inventarizatsiya, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining registrlari va shakllarining asosiy tushunchalarini oʻzlashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida statistik koʻrsatkichlarni baholash, tahlil va talqin etish boʻyicha koʻnikmalariga ega boʻlish, MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning koʻrsatkichlarini aniqlash, mutlaq va nisbiy koʻrsatkichlarni bilishi, tanlama kuzatish mohiyatini va uni qoʻllash sabablari va afzalliklarini aniqlash haqida malakalariga ega boʻlish;
- xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning operatsion faoliyatiga baho berish, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarda xarajatlar tahlili va byudjetlashtirish, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning moliyaviy holatiga baho berish, foyda va rentabellik koʻrsatkichlarini tahlil qilish, xoʻjalik yurituvchi subʼektlar kreditga layoqatlik holatiga baho berish, tarmoqlarda tahlil xususiyatlari boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻlish;
- boshqaruv usullaridan foydalanish, menejment texnologiyasini tashkil etish, boshqaruv jarayoni va vazifalarini belgilash, boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish, tashkilotning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish, korxona salohiyatini boshqarish, zamonaviy marketing konsepsiyalarini tatbiq etish, marketing kommunikatsiyasi elementlaridan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlish;
- soliq nazariyasini, soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini, shu jumladan soliq solish obʼektlari va subʼektlari, soliq solishning prinsiplari, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar tizimini, soliq munosabatlari subʼektlarining huquq va majburiyatlarini bilish;
- soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni prognoz qilish, hisoblash, byudjetga undirish, imtiyozlarni qoʻllash tartiblari va usullaridan foydalana bilish;
- soliqlarni va boshqa majburiy toʻlovlarni hisoblashda qoʻllaniladigan koʻrsatkichlar va ularning iqtisodiy ahamiyati boʻyicha koʻnikmaga ega boʻlish;
- tadbirkorlik subʼektlarini soliq toʻlovchi sifatida roʻyxatga olish va ular boʻyicha yagona reestr yuritish, soliq toʻlovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish,

xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining hujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari, soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyot yuritish, soliq qarzi bo'yicha undiruvni soliq to'lovchi mol-mulkiga qaratish, davlat soliq xizmati organlarida ijro intizomi va fuqarolar murojaatlari hamda ularni ko'rib chiqish tartibining nazariy jihatlarini o'zlashtirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq qarzi summalari hamda debitor-kreditor qarzlarning kelib chiqish sabablarini, soliq elementlarining soliqlarni prognoziga ta'sirining tahlilini, soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi nazoratining huquqiy asoslarini, xo'jalik sub'ektlari faoliyati bo'yicha davlat nazoratining tashkil etilishi asoslarini amalda qo'llay olish;

- auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va tashkil etish, auditning xalqaro standartlari asosida muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditning xalqaro standartlari asosida ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining nazariy, amaliy va huquqiy asoslarini bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zaruriy tayanch bilim va ko'nikmlarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 60410200-Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturinnig tuzilishi:

T.r.	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari
1.00	Majburiy fanlar
1.01	O'zbekistonning eng yangi tarixi
1.02	Iqtisodiyot nazariyasi
1.03	Xorijiy til (ingliz, fransuz, nemis)
1.04	Falsafa
1.05	Matematika I
1.06	Matematika II
1.07	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar
1.08	O'zbek(rus) tili
1.09	Dinshunoslik
1.10	Mikroiqtisodiyot
1.11	Statistika
1.12	Makroiqtisodiyot
1.13	Moliya
1.14	Ekonometrika
1.15	Investitsiya
1.16	Buxgalteriya hisobiga kirish
1.17	Audit
1.18	Soliqqa kirish
1.19	Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish
1.20	Yuridik shaxslarni soliqqa tortish I
1.21	Yuridik shaxslarni soliqqa tortish II
1.22	Soliq tushumlarini prognozlash
1.23	Soliq ma'murchiligi I
1.24	Soliq ma'murchiligi II
1.25	Soliq huquqi
1.26	Xalqaro soliqqa tortish
2.00	Tanlov fanlar
2.00	Tanlov fanlar
	Malakaviy amaliyot
	Yakuniy davlat attestatsiyasi

**Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha semestrlar kesimida kreditlar miqdori "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar"ga muvofiq Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti tomonidan mustaqil belgilanadi hamda akademik mobillik jarayonida o'zaro tan olinadi.*

2.4. Kvalifikatsiya: Soliqchi-iqtisodchi.

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, soliq, soliqqa tortish, soliq tizimi, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILDI:


Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



Rektor [Signature] **K.A.Sharipov**

202_ yil « ____ » _____

Toshkent moliya instituti



Rektor [Signature] **T. Teshaboyev**

202_ yil « ____ » _____

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi**

Raisining birinchi o'rinbosari [Signature] **M.Mirzayev**

202_ yil « ____ » _____

M.O'.



**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor [Signature] **Sh. Yakubov**

202_ yil « ____ » _____

M.O'.



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
60410200-Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim
yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh
oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - TDIU akademik faoliyat bo'yicha prorektori M.Eshov, Toshkent moliya instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori S.Mehmonov, Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektori K.Yusupov, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari M.Mirzayev bilan birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410200 – Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

Yuqoridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida” 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy kadrlar

iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

**Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti akademik faoliyat
bo'yicha prorektori**


M.Eshov

**Toshkent moliya instituti o'quv
ishlari bo'yicha prorektori**


S.Mehmonov

**Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal
institut, Strategik rivojlantirish
bo'yicha birinchi prorektor**

K.Yusupov

**O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Soliq qo'mitasi raisining
birinchi o'rinbosari**


M.Mirzayev